

ANIQ FAN DARSLARIDA MULTIMEDIALARDAN FOYDALANISH

Toyirova Gulmira Shodiyevna
Rahmatova Gulhayo Shomilovna

Navoiy viloyati Karmana tumani 16-maktabining matematika fani o'qituvchilari

Annotatsiya: *Ushbu maqolada aniq fan darslarida multimedialardan foydalanish haqidagi fikrlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Multimedia, grafika, dinamika, kompyuter-axborot texnologiyalari modeli, multiplikatsiya.*

Multimedia – kompyuterda axborotning turli xil ko'rinishlari: rangli grafika, matn va grafikda dinamik effektlar, ovozlarning chiqishi va sintezlangan musiqalar, animatsiya, shuningdek to'laqonli videokliplar, xatto videofilmlar bilan ishlashdir. Multimedia vositalari asosida o'qitish jarayonida aniq predmetni kompyuter asosida to'liq o'qitish, ma'ruza matnlarini taxrirlash, o'quvchi-talabalar topshirgan nazorat natijalarining taxlili asosida ma'ruza matnlarini bayon qilish uslubini yaxshilash, o'quvchi-talabalar axborot texnologiyalarini multimedia vositalari asosida animatsiya elementlarini dars jarayonida ko'rishi, eshitishi va mulohaza qilish imkoniyatlariga ega bo'ladi. Multimedia vositalari bilan ishlaydigan o'qituvchilar qo'yidagi vazifalarni amalga oshirishlari kerak: - ma'ruza matnlari, amaliyot bilan bog'lik topshiriqlarni tayyorlash; - uslubiy ko'rsatmalarni, nazorat savollarini, to'g'ri javoblar variantini tuzish; - ishchi dastur va texnologik xaritaning tuzish; - bilimni nazorat qilish natijasini tahlil qilish; - ma'ruza matnlarini tahrirlash; - xar bir mavzu bo'yicha dinamik ko'rinishda aks etuvchi jarayonlarning animatsiyalarini tasavvur qilish; - mustaqil ishlar bo'yicha o'quvchilarga nazariy va amaliy savollar yuzasidan maslahatlar berishni tashkil qilish; - o'zlashtirilishi murakkab bo'lgan mavzular bo'yicha o'quvchilar bilan suhbat o'tkazish kabi talablar qo'yiladi. Qo'yilgan ushbu talablar buyicha multimedia vositalari asosida dars jarayonini tashkil qilish pedagog-o'qituvchilarning yumushini osonlashtirib, o'quv jarayonini boshqarish, uning samaradorligini yanada ko'tarishga erishiladi, Shu bilan bir qatorda ta'lim muassasasi raxbariyatiga o'quvchilarning olgan bilimlarini test natijalarini ko'rib borish va ularning o'zlashtirish darajasiga baho berish, o'qituvchilarning ma'ruza matnlari va boshqa mustaqil ishlarga muljallangan materiallarining tayyorlash sifatiga baho berish, multimedia vositalari asosida laboratoriya ishlarini bajarish uchun kompyuterda modellashtirilgan virtual stendlar joriy etish, kursni o'zlashtirish buyicha uslubiy materiallarni tayyorlash uchun takliflar ishlab chiqish kabilarni amalga oshirish imkoniyatini beradi. Kompyuter-axborot texnologiyalari modelidan foydalanish masalasi o'qitilayotgan fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda dars jarayonida namoyish qilinishi kerak bo'lgan obyektning ichki, tashqi hossalarni ko'rsata olishdek

muhim vazifani amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. Bu esa o'z navbatida axborot-pedagogik texnologiyalar asosida multimediali elektron darsliklar yaratish mumkin ekanligini ko'rsatadi. Multimedia vositalari o'quv jarayonida quyidagi eng muhim jihatlari bilan alohida ahamiyatga egadir: differensial va individual o'qitish jarayonini tashkil qilishi; o'qish jarayonini baholash, teskari aloqa bog'lashi; o'zini-o'zi nazorat qilish va tuzatib borishi; o'rganilayotgan fanlarni namoyish etishi va ularning dinamik jarayonini ko'rsatishi fan mavzularida animatsiya, grafika, multiplikatsiya, ovoz kabi kompter va axborot texnologiyalardan foydalanishi; o'quvchi-talabalarga fanni o'zlashtirish uchun strategik ko'nikmalar hosil qilishi va hokazo. Shuningdek, multimedia vositalarining amaliy tomoni ulardan o'quv jarayonida foydalanish va kelgusida ta'lim tizimida o'quv jarayoni uchun ma'lumotlar bazasini va virtual stendlar yaratishdek muhim vazifani amalga oshirishga zamni hozirlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. I.Karimov. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: —O'zbekiston. – 1998.
2. B.Ziyomuhammadov, M. Tojiyev. —Pedagogik Texnologiya-Zamonaviy o'zbek milliy modeli T.: —Lider Press 2009
3. Tolipov O'. Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. Monografiya.-T.: —Fan,2005.
4. Ishmuhamedov R.J. Innovasion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. Toshkent, 2003